

“ELEKTRON TO‘LOV TIZIMLARI VA ULARNING HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI”

Rahmonova Zamira Zafarjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Ommaviy huquq fakulteti Davlat va jamiyat boshqaruvi yo‘nalishi, 2-kurs talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron to‘lov tizimlarining mohiyati, ularning huquqiy asoslari va amaliy qo‘llanilish mexanizmlari keng yoritilgan. Tadqiqot davomida elektron to‘lov tizimlari nafaqat moliyaviy operatsiyalarni tezkor va xavfsiz amalga oshirish vositasi sifatida, balki iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlovchi, naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytiruvchi, soliq tushumlarini oshiruvchi hamda raqamli iqtisodiyotning poydevorini tashkil etuvchi muhim omil sifatida tahlil etiladi. Maqolada O‘zbekiston Respublikasida elektron to‘lov tizimlarini tartibga soluvchi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar, jumladan, “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil 1-noyabr), “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun, “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonun hamda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ-huquqiy hujjatlari chuqur tahlil qilingan. Ushbu huquqiy bazaning mazmun-mohiyati elektron to‘lov tizimlari ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini belgilash, ularning faoliyati ustidan davlat nazoratini o‘rnatish, to‘lovlar xavfsizligi va shaffofligini ta‘minlashga qaratilganligi bilan izohlangan. Shuningdek, maqolada elektron to‘lov tizimlarining zamonaviy turlari — bank asosidagi, mobil, internet va elektron hamyon tizimlari, ularning texnik imkoniyatlari, afzalliklari va amaliy qo‘llanish sohasi batafsil yoritilgan. Raqamli to‘lov muhitida paydo bo‘layotgan kiberxavfsizlik muammolari, foydalanuvchilar ma‘lumotlarining maxfiyligini saqlash, firibgarlik holatlarining oldini olish bo‘yicha xalqaro standartlar (PCI DSS, ISO/IEC 27001) asosida tahliliy mulohazalar keltirilgan. Maqolada, shuningdek, blokcheyn texnologiyasi, sun‘iy intellekt asosida to‘lov monitoringi, mobil to‘lov platformalari va transchegaraviy to‘lov tizimlari kabi istiqbolli yo‘nalishlarning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan. Muallif elektron to‘lov tizimlarini takomillashtirish uchun huquqiy mexanizmlarni yanada rivojlantirish, milliy va xalqaro tizimlar o‘rtasida integratsiyani kuchaytirish, moliyaviy savodxonlikni oshirish hamda foydalanuvchi huquqlarini yanada samarali himoya qilish zarurligini asoslab beradi. Xulosa qismida esa elektron to‘lov tizimlari mamlakat iqtisodiy salohiyatini yuksaltiruvchi, moliyaviy xizmatlar raqamlashtirilishini tezlashtiruvchi hamda global raqamli iqtisodiyotda O‘zbekistonning raqobatbardoshligini oshiruvchi strategik omil sifatida baholangan.

Kalit so‘zlar: Elektron to‘lov tizimi, to‘lov tizimlari, raqamli iqtisodiyot, to‘lovlar xavfsizligi, huquqiy tartibga solish, Markaziy bank, elektron tijorat, elektron raqamli imzo, mobil to‘lovlar, naqd pulsiz hisob-kitob, axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik, blokcheyn texnologiyasi, moliyaviy infratuzilma, to‘lov tizimlari qonunchiligi, foydalanuvchi huquqlarini himoya qilish, raqamli transformatsiya, O‘zbekiston Respublikasi, to‘lov tashkilotlari, moliyaviy xizmatlar raqamlashtirilishi.

Kirish

Zamonaviy davrda raqamli texnologiyalar inson faoliyatining barcha jabhalariga chuqur kirib bormoqda. Xususan, iqtisodiyotning moliyaviy sohasi ham raqamli transformatsiya jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Elektron to‘lov tizimlari bu jarayonning eng muhim elementlaridan biri bo‘lib, ular orqali to‘lovlar va hisob-kitoblar tezkor, xavfsiz hamda qulay shaklda amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham elektron to‘lov tizimlarini joriy etish va rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, ushbu sohada huquqiy tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, xavfsizlikni ta’minlash va foydalanuvchilarning huquqlarini himoya qilish masalalari alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Asosiy qism

1. Elektron to‘lov tizimlarining mohiyati va turlari

Elektron to‘lov tizimlari — bu raqamli texnologiyalar asosida tovar va xizmatlar uchun haqni elektron shaklda to‘lash imkonini beruvchi tizimlardir. Ular to‘lov jarayonini tez, ishonchli va xavfsiz amalga oshirish imkonini beradi.

Ularning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- Bank asosidagi tizimlar – plastik kartalar orqali to‘lovlar (UZCARD, HUMO, VISA, MasterCard);
- Mobil to‘lov tizimlari – Payme, Click, Apelsin, Paynet kabi ilovalar orqali to‘lovlar;
- Elektron hamyon tizimlari – foydalanuvchi hisobidagi raqamli mablag‘lar orqali to‘lovlar;
- Internet to‘lov tizimlari – xalqaro platformalar (PayPal, Stripe, WeChat Pay va boshqalar).

Elektron to‘lov tizimlari pul muomalasining tezligini oshiradi, iqtisodiyotdagi naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini kengaytiradi va soliq tushumlarini oshirishga xizmat qiladi.

2. O‘zbekiston Respublikasida elektron to‘lov tizimlarini huquqiy tartibga solish

Elektron to‘lov tizimlari faoliyatini tartibga soluvchi asosiy me‘yoriy-huquqiy hujjat – “To‘lovlar va to‘lov tizimlari to‘g‘risida”gi Qonun (2019-yil 1-noyabr). Ushbu qonun to‘lov tizimlari ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini, ularning faoliyatiga qo‘yiladigan talablarni hamda davlat nazoratini belgilaydi.

Bundan tashqari, elektron to‘lov tizimlariga oid quyidagi qonunlar ham muhim ahamiyat kasb etadi:

- “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi Qonun;
- “Elektron raqamli imzo to‘g‘risida”gi Qonun;
- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining normativ hujjatlari.

Mazkur me‘yoriy hujjatlar to‘lov tizimlari barqarorligini, foydalanuvchilar ma’lumotlarining himoyasini va to‘lovlarning shaffofligini ta’minlashga qaratilgan. Markaziy bank to‘lov tashkilotlarini litsenziyalash, monitoring qilish va xavfsizlik darajasini nazorat qilish orqali tizimning barqaror faoliyatini kafolatlaydi.

Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi iqtisodiyotning barcha sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, elektron tijorat va elektron to‘lov tizimlari zamonaviy raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

An’anaviy savdo shakllari o’rnini onlayn platformalar egallayotgani, tovar va xizmatlar iste’moli jarayoni esa tez, qulay va xavfsiz elektron vositalar orqali amalga oshirilayotgani global tendensiyaga aylangan.

Elektron tijorat – bu internet tarmog’i orqali tovar va xizmatlar savdosini tashkil etish bo’lib, u biznes subyektlari va iste’molchilar o’rtasida yangi turdagi aloqalarni vujudga keltiradi. Bu tizim o’z ichiga mijozlarga xizmat ko’rsatish, reklama qilish, buyurtmalarni rasmiylashtirish va to’lovlarni amalga oshirish kabi bosqichlarni oladi. Shu bilan birga, elektron to’lov tizimlari bu jarayonning muhim tarkibiy qismi bo’lib, foydalanuvchilarga bank kartalari, elektron hamyonlar, mobil ilovalar yoki QRkodlar orqali tezkor va xavfsiz to’lovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

3. Elektron to’lov tizimlarida xavfsizlik va mavjud muammolar

Elektron to’lov tizimlarining keng qo’llanilishi bilan bir qatorda, ularning xavfsizligini ta’minlash masalasi ham dolzarbdir. Asosiy xavflar quyidagilardan iborat:

- Kiberhujumlar va firibgarlik holatlari;
- Foydalanuvchi shaxsiy ma’lumotlarining o’g’irlanishi;
- Tizimlardagi texnik nosozliklar va dasturiy xatoliklar.

Bularni oldini olish maqsadida to’lov tizimlari ishtirokchilari axborot xavfsizligi, kiberxavfsizlik va maxfiylikni ta’minlash bo’yicha xalqaro standartlarga (masalan, PCI DSS) mos ishlashi lozim.

Elektron to’lov tizimlarining rivojlanishi banklar, fintech kompaniyalar va texnologik startaplar o’rtasida kuchli raqobatni yuzaga keltirmoqda. Masalan, QR-kod asosidagi to’lovlar yoki NFC texnologiyasidan foydalangan holda telefon orqali to’lash imkoniyatlari kundalik hayotda tobora ommalashmoqda. Har bir yangi texnologiya foydalanuvchi uchun yanada soddalashtirilgan, xavfsiz va tezkor xizmatni taklif qilmoqda. Bu esa aholining moliyaviy savodxonligiga ijobiy ta’sir ko’rsatadi. O’zbekistonda ham bu yo’nalishda sezilarli taraqqiyot kuzatilmoqda. UzCard va HUMO tizimlari orqali millionlab foydalanuvchilar to’lovlarni onlayn tarzda amalga oshiryapti. Yangi yaratilayotgan mobil ilovalar, masalan Payme, Click, Apelsin kabi xizmatlar orqali foydalanuvchilar uyda o’tirgan holda kommunal to’lovlar, soliqlar, internet va boshqa xizmatlar uchun to’lovlarni amalga oshirishi mumkin. Bu tizimlar zamonaviy turmush tarzining ajralmas vositasiga aylanmoqda.

Elektron tijorat va to’lov tizimlarida eng muhim jihatlardan biri bu xavfsizlikdir. Foydalanuvchi ma’lumotlarini himoya qilish, tranzaksiyalarni shifrlash, ikki bosqichli autentifikatsiya kabi mexanizmlar orqali ishonchli tizimlar yaratilmoqda. Bu esa foydalanuvchilarning faolligini oshiradi va raqamli xizmatlarga bo’lgan talabni yanada kuchaytiradi. Yangi startaplar uchun bu soha katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Masalan, kichik korxonalar yoki yakka tadbirkorlar onlayn platformalar orqali mahsulotlarini chekka hududlardan turib ham sotishlari, mijozlar bilan to’g’ridan-to’g’ri aloqa qilishlari, to’lovlarni avtomatik ravishda qabul qilishlari mumkin.

4. Elektron to’lov tizimlarining istiqbollari

Kelgusida elektron to’lov tizimlarini rivojlantirish uchun quyidagi yo’nalishlar ustuvor hisoblanadi:

- Milliy va xalqaro to’lov tizimlari o’rtasida integratsiyani kuchaytirish;

- Blokcheyn texnologiyalari asosida yangi to‘lov mexanizmlarini joriy etish;
- Sun’iy intellekt orqali firibgarlikni aniqlash tizimlarini rivojlantirish;
- Moliyaviy savodxonlikni oshirish orqali aholining elektron to‘lovlardan foydalanish madaniyatini yuksaltirish.

Elektron to‘lov tizimlarining zamonaviy ahamiyati va global rivojlanish tendensiyalari Bugungi kunda elektron to‘lov tizimlari global moliyaviy infratuzilmaning ajralmas bo‘lagi sifatida nafaqat to‘lovlarni amalga oshirish vositasi, balki iqtisodiy islohotlar va raqamli transformatsiyaning strategik omili sifatida e’tirof etilmoqda. Raqamli iqtisodiyotda elektron to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilayotgan tranzaksiyalar hajmi yildan yilga ortib bormoqda. Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, dunyoda har 10 ta moliyaviy operatsiyadan 8 tasi elektron shaklda amalga oshirilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda bu jarayonlar iqtisodiy o‘sishni jadallashtirish bilan birga, soya iqtisodiyotini qisqartirish, soliq bazasini kengaytirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim rol o‘ynamoqda. O‘zbekistonda elektron to‘lov tizimlarining iqtisodiy ta’siri O‘zbekiston iqtisodiyotida elektron to‘lov tizimlarining keng joriy etilishi naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini sezilarli darajada oshirdi. Markaziy bank ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil holatiga ko‘ra, respublika bo‘yicha elektron to‘lovlar hajmi 800 trillion so‘mdan oshgan. Bu esa to‘lov intizomini yaxshilash, moliyaviy muomalalarning shaffofligini ta’minlash va iste’mol madaniyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, elektron to‘lov tizimlari kichik biznes va tadbirkorlik sub’yektlariga bank xizmatlaridan masofadan foydalanish imkonini yaratib, iqtisodiy faollikni oshiradi. Mobil ilovalar orqali to‘lovlar sonining keskin o‘sishi (Payme, Click, Apelsin va boshqalar) aholining moliyaviy texnologiyalarga ishonchini kuchaytirgan.

Elektron to‘lov tizimlarining ijtimoiy ahamiyati:-Elektron to‘lov tizimlari nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikka ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ular:

- aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi;
- davlat xizmatlarini (soliq, bojxona, kommunal to‘lovlar) tezkor va shaffof shaklda amalga oshirishni ta’minlaydi;
- nafaqalar, stipendiyalar, ish haqlarini elektron tarzda yetkazib berish orqali korrupsiya xavfini kamaytiradi;
- aholining moliyaviy savodxonligini oshiradi.

Shuningdek, elektron to‘lov tizimlari ayollar va yoshlar o‘rtasida iqtisodiy faollikni oshirish, ularning mustaqil moliyaviy qaror qabul qilish imkoniyatlarini kengaytirishda ham muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Huquqiy tartibga solishda xalqaro tajriba:

Jahon amaliyotida elektron to‘lov tizimlarini tartibga solish jarayonlari uchta asosiy yo‘nalishda amalga oshiriladi:

1. Normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish – Yevropa Ittifoqida bu jarayon “PSD2” (Payment Services Directive 2) orqali tartibga solinadi. Ushbu direktiva to‘lov xizmatlari ko‘rsatish, ma’lumot almashish va xavfsizlik standartlarini belgilaydi.

2. Regulyator va nazorat organlari faoliyati – AQShda Federal Rezerv tizimi va FinCEN (Financial Crimes Enforcement Network) to‘lov tizimlari faoliyatini nazorat qiladi.

3. Xalqaro xavfsizlik standartlari – PCI DSS (Payment Card Industry Data Security Standard) elektron to‘lovlar xavfsizligini ta’minlashda asosiy xalqaro me’yor sifatida qo‘llaniladi.

O‘zbekiston ushbu tajribalarni milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich integratsiya qilmoqda. Xususan, Markaziy bank tomonidan 2022-yildan boshlab elektron to‘lov infratuzilmasining xalqaro standartlarga moslashtirilgan “To‘lovlar xavfsizligi konsepsiyasi” ishlab chiqilgan.

Raqamli xavfsizlik va kiberxavf tahdidlari

Elektron to‘lov tizimlari faoliyatida kiberxavfsizlik eng dolzarb masalalardan biridir. Har yili dunyoda to‘lov tizimlariga nisbatan millionlab kiberhujumlar sodir bo‘ladi. Shuning uchun O‘zbekistonda ham moliyaviy tashkilotlar axborot xavfsizligini kuchaytirish maqsadida zamonaviy shifrlash algoritmlarini (SSL, RSA, AES) joriy qilmoqda.

Markaziy bank va Axborot texnologiyalari vazirligi tomonidan to‘lov tizimlarida ishlatiladigan server va ma’lumotlar markazlarining sertifikatlash jarayoni yo‘lga qo‘yilgan. Har bir to‘lov tashkiloti axborot xavfsizligi bo‘yicha auditdan o‘tishi majburiy hisoblanadi. Kelajak istiqbollari va raqamli transformatsiya

Elektron to‘lov tizimlarining kelajagi to‘liq raqamli transformatsiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liq. Sun’iy intellekt, blokcheyn, “open banking” va “instant payment” texnologiyalari to‘lov tizimlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Kelgusida:

- barcha davlat xizmatlari yagona raqamli to‘lov portali orqali amalga oshiriladi;
- tranzaksiyalar soni va tezligi bir necha barobarga oshadi;
- blokcheyn asosidagi to‘lov tizimlari firibgarlikni mutlaqo kamaytiradi;
- xalqaro elektron hamyonlar (Apple Pay, Google Pay) bilan integratsiya kuchayadi.

Bularning barchasi O‘zbekistonning moliyaviy barqarorligi va raqamli iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda ham elektron to‘lov tizimini rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha keng amaliy ishlar olib borilmoqda. Bu borada qabul qilingan qonun va qonun-osti hujjatlari bank va to‘lov tizimini tartibga solishga, elektron tijoratni rivojlantirishga qaratilgan. O‘zbekistonda elektron pulni tranzaksiyasi bilan shug‘ullanadigan, aholi o‘rtasida keng tarqalgan tizim bu Click.uz dir (Paynet va Uzcarddan tashqari). Undagi to‘lovlar uyali telefon tarmog‘i orqali amalga oshiriladi. Shunday tizimlardan yana biri UPAY to‘lov tizimidir. Bu to‘lov tizimi 2010 yilda O‘zbekiston Savdo-sanoat Palatasi, ATB “Mikrokreditbank” va «Beeline» uyali telefon operatori hamkorligida yaratilgan va boshida «SMS-TO’LOV» degan nom olgan edi. Ishlash prinsipi Click.uz tizimiga o‘xshash. Ushbu to‘lov tizimlari orqali hozirgi kunda telefon, kommunal, internet xizmatlari, soliq, sug‘urta to‘lovlari, temir yo‘l va avia-chiptalariga buyurtmalar berish operatsiyalarini amalga oshirish mumkin. Mamlakat hududidan internet banking operatsiyalarini amalga oshiradigan yangi tizimlardan bitta bu WEBSUM.UZ tizimidir. WEBSUM bu Internet tarmog‘i orqali bir zumda Tovar yoki xizmatlarni sotish yoki xarid qilish konini beruvchi elektron to‘lov tizimidir.

Elektron to‘lov tizimning afzalliklari quyidagilardan iborat: Haridor o‘ziga qulay vaqt, joy va tezlikda mahsulotni tanlash va sotib olish imkoniyatiga ega. Savdo-sotiq faoliyatini ish

faoliyat ibilan birga parallel ravishda, ya’ni ishlab chiqarishdan ajralmagan holda olib boorish imkoniyati. Ko’p sonly xaridorlarning bir vaqtning o’zida bir nechta sotuvchilarga murojaat qila olish imkoniyati. Xaridorning yashash joyi, sog’ligi va moddiy ta’minlanish darajasidan qat’iy nazar hamma qatori teng huquqli mahsulot sotib olish imkoniyati. Elektron tijoratda savdoni tashkil qilish korxonalarining raqobatini kuchaytiradi, monopoliyadan chiqaradi va mahsulotlarning ifatini oshirish imkoniyatini beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Elektron to’lov tizimlari zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida davlatning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish va aholining turmush darajasini yaxshilashda beqiyos ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu tizimlar orqali amalga oshirilayotgan operatsiyalar iqtisodiy muomalalarning shaffofligini ta’minlab, naqd pulga bo’lgan ehtiyojni kamaytiradi, davlat byudjetiga tushumlarning oshishiga sabab bo’ladi hamda korrupsion omillarni qisqartiradi. Shu bilan birga, elektron to’lov tizimlari orqali moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyati kengayib, aholining, ayniqsa, yoshlar va tadbirkorlarning moliyaviy faolligi ortmoqda. Bu esa jamiyatda raqamli savodxonlikning yuksalishiga, innovatsion g’oyalar asosida yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratishga turtki bo’lmoqda.

O’zbekiston Respublikasida so’nggi yillarda elektron to’lov tizimlarini rivojlantirish bo’yicha qabul qilingan qonunlar, prezident farmonlari va Markaziy bank me’yoriy hujjatlari ushbu sohaning barqaror va xavfsiz ishlashiga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, “To’lovlar va to’lov tizimlari to’g’risida”gi Qonun amaliyotda huquqiy aniqlik, tizimli tartib va nazorat mexanizmlarini mustahkamlash imkonini berdi.

Biroq, tizimning kengayishi bilan birga, kiberxavfsizlik, ma’lumotlarning himoyasi, foydalanuvchi huquqlarining kafolatlanishi kabi masalalar ham dolzarbligicha qolmoqda. Shu bois elektron to’lov tizimlarini yanada takomillashtirish uchun xalqaro standartlar asosida xavfsizlik siyosatini kuchaytirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, davlat va xususiy sektor o’rtasida hamkorlikni yanada kengaytirish zarur. Kelajakda elektron to’lov tizimlarini rivojlantirish O’zbekistonning raqamli iqtisodiyotga to’liq o’tish jarayonini tezlashtiradi, moliyaviy xizmatlarni yanada qulay va ommabop qiladi hamda mamlakatning global iqtisodiy maydondagi raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Shu nuqtai nazardan, elektron to’lov tizimlarini chuqur ilmiy tahlil qilish, ularni huquqiy jihatdan mukammallashtirish va amaliyotda keng joriy etish — kelajak taraqqiyotining muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: “O’zbekiston”, 2023.
2. O’zbekiston Respublikasining “To’lovlar va to’lov tizimlari to’g’risida”gi Qonuni. Qabul qilingan sana: 2019-yil 1-noyabr.
3. O’zbekiston Respublikasining “Elektron tijorat to’g’risida”gi Qonuni. Qabul qilingan sana: 2015-yil 29-aprel.
4. O’zbekiston Respublikasining “Elektron raqamli imzo to’g’risida”gi Qonuni. Qabul qilingan sana: 2003-yil 11-dekabr.

5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “To‘lov tizimlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risidagi nizom”, 2021-yil 25-iyun.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, PQ-4699-son, 2020-yil 28-aprel.
7. Karimov A. R. Elektron to‘lov tizimlari va ularning xavfsizligini ta’minlash masalalari. – Toshkent: TDYUU nashriyoti, 2022.
8. Abdullayev B. Sh. Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron to‘lov tizimlari rivoji. – “Iqtisod va huquq” jurnali, №4, 2021.
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy veb-sayti: <https://www.cbu.uz>
10. Jahon banki (World Bank). Digital Financial Services: Global Overview and Trends. – Washington D.C., 2021.